



BANK DEPOZIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH VA RESURLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH

**Abdugʻaniyev
Shoxruxbek Shavkatbek
oʻgʻli**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi, PhD., dotsent
E-mail: shoxa_6154@mail.ru*

Mazkur tezisda Oʻzbekiston tijorat banklarining depozit bazasi, uning valyuta, muddat va mijozlar tarkibi 2025–2026-yillardagi amaldagi statistik maʼlumotlar asosida tahlil qilindi. Depozit siyosatining samaradorligini faqat jalb qilingan mablagʻlar hajmi bilan emas, balki ularning muddati, qiymati, valyutasi, barqarorligi va kredit operatsiyalarini moliyalashtirishdagi roli orqali baholash zarurligi asoslandi. Tahlil natijasida milliy valyutadagi depozitlarning oʻsishi, xorijiy valyutadagi mablagʻlar ulushining qisqarishi bilan bir vaqtda uzoq muddatli depozitlarning jami depozitlardagi ulushi pasaygani aniqlandi. Banklar depozit siyosatini takomillashtirishda foiz stavkasini oshirish hisobiga resurs jalb qilishdan koʻra depozitlarning muddat tarkibini yaxshilash, resurs qiymatini nazorat qilish va mijozlar bazasini diversifikatsiya qilish ustuvor vazifa boʻlishi lozim.

Bank faoliyatida depozit siyosati passiv operatsiyalarning alohida yoʻnalishi emas. U bankning kredit siyosati, likvidligi, foiz marjasi va moliyaviy barqarorligi bilan bevosita bogʻliq. Bank yuqori foiz stavkasini taklif qilib qisqa muddatda katta hajmdagi mablagʻni jalb qilishi mumkin, biroq ushbu resurslarning tannarxi kreditlardan olinadigan daromadga nisbatan tezroq oshsa, depozit portfelining koʻpayishi bank samaradorligining oshganini anglatmaydi. Shu sababli depozit siyosatida mablagʻlar hajmi bilan bir qatorda ularning muddati va qiymatini boshqarish muhim hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki maʼlumotlariga koʻra, 2026-yil 1-avgust holatiga bank tizimidagi jami depozitlar 482 669 mlrd soʻmni tashkil qilgan. 2025-yilning ayni sanasida ushbu koʻrsatkich 360 402 mlrd soʻm boʻlgan. Demak, bir yil ichida depozit bazasi qariyb 34 foizga kengaygan. Shu davrda xorijiy valyutadagi depozitlar 86 905 mlrd soʻmdan 92 683 mlrd soʻmga oshgan boʻlsa-da, ularning jami depozitlardagi ulushi 24 foizdan 19 foizgacha qisqargan.

1-jadval

O'zbekiston bank tizimi depozitlarining valyuta tarkibidagi o'zgarish

Ko'rsatkich	2025-yil 1-avgust	2026-yil 1-avgust	O'zgarish
Jami depozitlar, mlrd so'm	360 402	482 669	+33,9%
Xorijiy valyutadagi depozitlar, mlrd so'm	86 905	92 683	+6,6%
Xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi	24%	19%	-5 foiz punkt
Milliy valyutadagi depozitlar, mlrd so'm	273 497	389 986	+42,6%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Jadvaldan ko'rinadiki, depozit bazasining o'sishi asosan milliy valyutadagi mablag'lar hisobiga yuz bergan. Bir yil ichida milliy valyutadagi depozitlar 116,5 trln so'mga yoki 42,6 foizga oshgan. Xorijiy valyutadagi depozitlar esa atigi 6,6 foizga ko'paygan. Natijada bank tizimining depozit bazasida milliy valyutaning mavqei mustahkamlangan. Bu holat banklarning so'mdagi kredit operatsiyalarini ichki depozit resurslari bilan moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi va xorijiy valyutadagi majburiyatlarga bog'liqlikni nisbatan kamaytiradi.

Biroq depozit siyosati samaradorligini baholashda mablag'larning faqat valyuta tarkibini ko'rib chiqish yetarli emas. Depozitlarning qancha muddatga jalb qilingani bank likvidligi va kredit portfelini moliyalashtirish imkoniyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

2026-yil 1-avgustda 482 669 mlrd so'mlik jami depozitlarning 142 028 mlrd so'mi talab qilib olinguncha depozitlar, 175 701 mlrd so'mi bir yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar va 164 940 mlrd so'mi bir yildan ortiq muddatli depozitlardan iborat bo'lgan. Bir yil oldin uzoq muddatli depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 37 foiz bo'lgan bo'lsa, 2026-yil 1-avgustga kelib bu ulush 34 foizni tashkil qilgan. Ayni paytda bir yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar ulushi 33 foizdan 36 foizgacha oshgan.

2-jadval

Depozitlarning muddatlar bo'yicha tarkibi

Depozit turi	2025-yil 1-avgust, mlrd so'm	Ulushi	2026-yil 1-avgust, mlrd so'm	Ulushi	O'sish
Talab qilib olinguncha	106 818	30%	142 028	29%	33,0%
Bir yilgacha muddatli	120 546	33%	175 701	36%	45,8%
Bir yildan ortiq muddatli	133 039	37%	164 940	34%	24,0%
Jami	360 402	100%	482 669	100%	33,9%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Mazkur tarkibda muhim jihat shundaki, uzoq muddatli depozitlar mutlaq miqdorda 31,9 trln so'mga oshgan bo'lsa-da, ularning depozit portfelidagi ulushi 3 foiz punktga qisqargan. Aksincha, bir yilgacha bo'lgan depozitlar 45,8 foizga ko'paygan. Demak, depozitlarning umumiy hajmi tez o'sayotgan bir paytda mablag'larning uzoq muddatli barqaror manbalarga aylanish sur'ati nisbatan pastroq bo'lgan.

Bank kreditlari, ayniqsa ipoteka, investitsiya va korporativ kreditlarning katta qismi o'rta va uzoq muddatga beriladi. Shuning uchun passivlarning muddat tarkibi aktivlarning muddat tarkibiga imkon qadar moslashtirilishi zarur. Aks holda bank uzoq muddatli kreditlarni qisqaroq muddatga jalb qilingan resurslar bilan moliyalashtirishga ko'proq ehtiyoj sezadi.

Depozitlarning mijozlar bo'yicha tarkibida ham sezilarli farq mavjud. 2026-yil 1-avgust holatiga jami 482 669 mlrd so'm depozitning 185 161 mlrd so'mi jismoniy shaxslarga, 297 508 mlrd so'mi yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan. Shunday qilib, jismoniy shaxslarning ulushi 38,4 foizni, yuridik shaxslarning ulushi 61,6 foizni tashkil qilgan.

Banklar kesimida depozit bazasining hajmi va mijozlar tarkibi bir xil emas.

3-jadval

Depozit hajmi yuqori bo'lgan ayrim tijorat banklari, 2026-yil 1-avgust

Bank	Jami depozit, mlrd so'm	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Bank tizimidagi ulushi
O'zmilliybank	58 383	19 032	39 351	12,1%
Kapital bank	48 908	28 843	20 065	10,1%
Agrobank	43 022	22 961	20 061	8,9%
O'zsanoatqurilishbank	37 562	12 439	25 122	7,8%
Xalq banki	31 124	6 684	24 440	6,4%
Ipoteka-bank	28 953	5 403	23 549	6,0%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Ushbu olti bank hissasiga jami bank depozitlarining qariyb 51,4 foizi to'g'ri keladi. Shu bilan birga banklarning mijozlar tarkibi keskin farqlanadi. Masalan, Kapital bankda jismoniy shaxslar depozitlari jami depozitlarning katta qismini tashkil etsa, O'zmilliybank va O'zsanoatqurilishbankda yuridik shaxslar mablag'lari ustunlik qiladi. Bu holat barcha tijorat banklari uchun yagona depozit strategiyasini qo'llash samarali emasligini ko'rsatadi. Chakana banklar uchun aholining muddatli jamg'armalarini ushlab qolish muhim bo'lsa, yirik korporativ mijozlar bilan ishlovchi banklarda depozitlarning konsentratsiyasi va yirik mijoz mablag'larining chiqib ketish xavfini boshqarish muhimroq ahamiyatga ega.

Foiz stavkasi depozit siyosatining eng muhim, ammo yagona vositasi emas. Markaziy bank statistikasi bo'yicha milliy valyutadagi jismoniy shaxslar muddatli depozitlarining o'rtacha tortilgan yillik stavkasi 2026-yil yanvaridagi 20,6 foizdan iyunda 19,2 foizgacha pasaygan. Yuridik shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha stavka shu davrda 16,3 foizdan 15,3 foizgacha o'zgargan.

Bu ko'rsatkichlar depozitlar hajmi oshayotgan davrda ularni jalb qilish qiymati bo'yicha bosim ma'lum darajada yumshaganini ko'rsatadi. Bank nuqtai nazaridan samarali depozit siyosati imkon qadar yuqori foiz to'lash emas, zarur hajmdagi barqaror resursni maqbul qiymatda jalb qilishdir. Foiz stavkasining asossiz oshirilishi resurs tannarxini ko'paytirib, bankning sof foiz marjasiga bosim o'tkazishi mumkin.

Depozit siyosati bilan kredit siyosati o'rtasidagi bog'liqlik davlat ulushi mavjud va boshqa banklar misolida ham ko'rinadi. 2026-yil 1-avgustda davlat ulushi mavjud banklar bank tizimidagi depozitlarning 248 242 mlrd so'mini, ya'ni 51 foizini jalb qilgan, kredit portfelining esa 421 937 mlrd so'mi yoki 65 foizini shakllantirgan.

Boshqa banklarning depozitlari 234 427 mlrd so‘m, kreditlari esa 222 700 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Ushbu raqamlar asosida hisoblanganda kreditlarning depozitlarga nisbati butun bank tizimida 133,6 foiz, davlat ulushi mavjud banklarda qariyb 170 foiz va boshqa banklarda 95 foiz atrofida shakllanadi. Bu ko‘rsatkichni bank samaradorligining yagona mezonini sifatida baholab bo‘lmaydi, chunki kredit operatsiyalari kapital, xalqaro kredit liniyalari, banklararo resurslar va boshqa majburiyatlar hisobidan ham moliyalashtiriladi. Biroq u depozit bazasi bilan kredit faolligi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib, resurslarni boshqarishda depozit siyosatining ahamiyatini oshiradi.

Depozit bozorida ishonchni mustahkamlash bo‘yicha institutsional sharoit ham o‘zgardi. 2025-yil 18-fevralda qabul qilingan “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, yangi omonatlar bo‘yicha bir bankda bir omonatchiga kafolatlanadigan miqdor 200 mln so‘m etib belgilandi. Kafolat tizimi jismoniy shaxslar bilan bir qatorda tadbirkorlik subyektlari mablag‘larini ham qamrab oldi. Qonun kuchga kirguniga qadar joylashtirilgan muddatli va jamg‘arma omonatlariga avvalgi to‘liq kafolat saqlanib qolgan. Kompensatsiya to‘lashni boshlash muddati 20 ish kuni etib belgilangan va keyinchalik uni 7 ish kunigacha qisqartirish nazarda tutilgan.

Ushbu mexanizm depozit bozoridagi raqobatning faqat yuqori foiz taklif qilish shaklida rivojlanishiga muqobil omil yaratadi. Omonatchi uchun foiz stavkasi bilan birga bankning barqarorligi, xizmat sifati, depozit shartlarining shaffofligi va kafolat tizimi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning tushunarli taqdim qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan tahlil asosida tijorat banklarining depozit siyosati samaradorligini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Depozit siyosatini faqat depozit hajmi bo‘yicha baholash amaliyotidan voz kechish. Bank boshqaruvi depozitlar hajmi bilan bir qatorda ularning o‘rtacha qiymati, o‘rtacha muddati, valyuta tarkibi, mijozlar tarkibi va muddatidan oldin yechib olish darajasini muntazam kuzatishi zarur.

2. Bir yildan ortiq muddatli depozitlar ulushini oshirishga alohida e‘tibor qaratish. 2025–2026-yillarda ularning mutlaq hajmi oshgan bo‘lsa-da, jami depozitlardagi ulushi 37 foizdan 34 foizga tushgan. Shu sababli uzoq muddatli jamg‘arma mahsulotlari bo‘yicha foiz stavkasi, muddatidan oldin yechish shartlari va foizlarni kapitalizatsiya qilish mexanizmlari qisqa muddatli depozitlardan aniq farqlanishi kerak.

3. Depozit qiymatini kredit daromadliligi bilan bog‘liq holda boshqarish. Har bir depozit mahsuloti bo‘yicha jalb qilingan resursning haqiqiy qiymati hisoblanib, ushbu mablag‘lar qaysi aktivlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilayotgani bilan birgalikda baholanishi kerak. Bu yuqori stavka evaziga jalb qilingan qimmat resurslarning past daromadli aktivlarga joylashtirilishining oldini oladi.

4. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun alohida depozit strategiyasini ishlab chiqish. 2026-yil 1-avgustda yuridik shaxslar mablag‘lari jami depozitlarning 61,6 foizini tashkil qilgan. Korporativ depozitlarning katta hajmi likvidlikni ta‘minlasa-da, yirik mijoz mablag‘larining bir vaqtda chiqib ketishi xavfini ham hisobga olish talab etiladi. Chakana depozitlar esa ko‘plab omonatchilar o‘rtasida taqsimlangani sababli barqaror resurs bazasini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

5. Milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha shakllangan ijobiy tendensiyaning saqlash. Milliy valyutadagi depozitlar bir yil ichida 42,6 foizga ko'paygan va xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi 24 foizdan 19 foizgacha kamaygan. Depozit mahsulotlarining narxlash siyosati ushbu tendensiyaning izchil davom ettirishga yo'naltirilishi kerak.

6. Omonatlarni kafolatlash tizimi haqidagi ma'lumotlarni depozit mahsulotining tarkibiy qismiga aylantirish. Mijozga depozit ochish vaqtida kafolat miqdori, qamrov doirasi va kompensatsiya tartibi sodda va aniq shaklda tushuntirilishi bankka bo'lgan ishonchni oshiradi. 2026-yil 29-yanvardan banklar depozit kafolati tizimi to'g'risida batafsil ma'lumot taqdim etishi bo'yicha talablar ham kuchga kirgan.

7. Bankning aktiv va passivlarini yagona tizimda boshqarish. Depozit siyosati kreditlash hajmidan ajratilgan holda shakllantirilmasligi kerak. Depozitlarning muddati va qiymati kredit portfelining muddati, daromadlilik va likvidlik ehtiyoji bilan ALCO darajasida muntazam muvofiqlashtirib borilishi lozim.

Tahlil natijalari O'zbekiston bank tizimida depozit bazasi 2025-yil avgustidan 2026-yil avgustigacha sezilarli kengayganini ko'rsatdi. Jami depozitlar 360,4 trln so'mdan 482,7 trln so'mga oshgan, milliy valyutadagi depozitlar o'sishi esa 42,6 foizni tashkil qilgan. Shu bilan birga uzoq muddatli depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 37 foizdan 34 foizgacha kamaygan. Bu holat depozit siyosatining keyingi bosqichida asosiy e'tiborni mablag'lar hajmini oshirishning o'ziga emas, balki ularning muddatini uzaytirish, qiymatini optimallashtirish va mijozlar bazasini diversifikatsiya qilishga qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Tijorat banki depozit siyosatining haqiqiy samaradorligi **“qancha depozit jalb qilindi?”** degan savol bilan emas, balki **“qanday qiymatda, qaysi muddatga, qaysi valyutada va qanchalik barqaror resurs jalb qilindi?”** degan mezonlar orqali aniqlanishi lozim. Ana shunday yondashuv depozit siyosatini oddiy mablag' jalb qilish mexanizmidan bank likvidligi, rentabelligi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi boshqaruv vositasiga aylantiradi.

Tadqiqot natijalari rivojlangan davlatlar banklarida strategik rejalashtirish samaradorligi yagona universal model bilan emas, balki strategiya, risk-boshqaruv, kapital rejalashtirish, raqamli transformatsiya va KPI monitoringining o'zaro integratsiyasi bilan belgilanishini ko'rsatadi. AQSHning stress-test va kapital rejalashtirish mexanizmi, Yevropaning SREP/ICAAP tizimi, Yaponiyaning uch yillik strategik sikli hamda ING va Deutsche Bankning operatsion samaradorlik tajribasini O'zbekiston sharoitiga tizimli moslashtirish banklarda strategik boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi.